O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar


2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
II. O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
IV. O‘zbekistonda ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 584,2 trln so‘mni tashkil qildi, bu 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 20,1 foizga ko‘pdir.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o‘sish sur’atlarining so‘nggi besh yillik dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan qariyb 2,2 barobarga oshgan.

So‘nggi besh yildagi o‘sish sur’atlariga kelsak, ularda o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2024-yilda eng yuqori o‘sish sur’ati – 138,4 foiz qayd etilgan bo‘lsa, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida bu ko‘rsatkich 120,1 foizni tashkil etdi.

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (choraklik)
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)
Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur‘ati (choraklik)
Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur‘ati (yillik)

1-jadval. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

	Hajmi mlrd so‘m	o‘sish sur’ati %da	umumiy hajmga nisbatan %da	
			2025-y.	2026-y.
Jami	**584 154,2**	**120,1**	**100,0**	**100,0**
markazlashgan investitsiyalar:	**65 596,0**	**143,3**	**9,4**	**11,2**
respublika budjeti	25 383,0	123,7	4,3	4,3
tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari	3 937,9	236,2	0,3	0,7
shu jumladan, mln AQSH dollari	*327,2*	*260,2*	–	–
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	36 275,1	154,0	4,8	6,2
shu jumladan, mln AQSH dollari	*3 013,8*	*169,1*	–	–
markazlashmagan investitsiyalar:	**518 558,2**	**117,6**	**90,6**	**88,8**
korxona mablag‘lari	67 819,6	109,9	12,7	11,6
aholi mablag‘lari	71 590,7	111,0	13,1	12,3
Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	371 728,8	120,5	63,6	63,6
shu jumladan, mln AQSH dollari	*30 883,5*	*131,5*	–	–
shundan:				
xorijiy investitsiyalar	270 600,1	121,1	46,0	46,3
shu jumladan, mln AQSH dollari	*22 481,7*	*132,3*	–	–
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	7 419,1	123,1	1,2	1,3

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 43,3 foizga oshib, 65,6 trln so‘mni tashkil qildi. Ularning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi 11,2 foizga teng bo‘ldi.

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

Respublika budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)


O‘zbekiston kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)

Korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)

Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)

Aholi mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)

Yillar bo‘yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi



2-jadval. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi

Hududlar	Jami investitsiyalar mlrd so‘m	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha, jamiga nisbatan %da:					
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilotlar	Aholi	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari
O‘zbekiston Respublikasi[1]	**584 154,2**	**4,3**	**11,6**	**12,3**	**69,8**	**0,7**	**1,3**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	22 616,7	4,8	19,7	14,9	57,2	-	3,4
Andijon viloyati	33 621,4	4,2	6,6	19,6	68,1	1,2	0,3
Buxoro viloyati	34 468,3	4,3	14,2	11,1	69,8	-	0,6
Jizzax viloyati	21 206,9	5,3	11,6	15,3	67,5	-	0,3
Qashqadaryo viloyati	30 432,6	5,9	10,8	26,5	56,0	-	0,8
Navoiy viloyati	37 905,4	2,7	7,3	7,4	82,1	0,2	0,3
Namangan viloyati	59 955,1	1,7	8,6	11,7	74,6	-	3,4
Samarqand viloyati	46 091,8	4,9	6,7	7,0	80,2	0,7	0,5
Surxondaryo viloyati	34 539,6	3,7	7,0	14,1	75,0	-	0,2
Sirdaryo viloyati	19 440,8	3,0	8,6	4,0	78,3	2,3	3,8
Toshkent viloyati	60 976,9	3,5	14,1	16,6	64,6	0,2	1,0
Farg‘ona viloyati	46 041,6	2,9	8,6	17,8	69,8	-	0,9
Xorazm viloyati	25 184,7	12,8	4,6	19,6	62,1	-	0,9
Toshkent shahri	94 812,8	5,4	22,8	4,7	64,6	0,9	1,6

[1] *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda*

II. O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida qayta ishlash sanoati ustunlik qilmoqda. Mazkur tarmoqda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida 160,8 trln so‘m yoki asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 27,5 foizi o‘zlashtirildi.

3-jadval. Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, 2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

	Hajmi mlrd so‘m	umumiy hajmga nisbatan %da	
		2025-y.	2026-y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	**584 154,2**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:			
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	52 135,3	7,0	8,9
tog‘-kon sanoati	33 853,2	9,5	5,8
ishlab chiqarish sanoati	160 759,2	25,5	27,5
elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo	38 980,7	12,9	6,7
suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish	12 223,3	2,3	2,1
qurilish	51 113,6	7,0	8,8
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash	22 561,8	2,7	3,9
tashish va saqlash	27 741,3	4,7	4,7
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9 482,4	1,4	1,6
axborot va aloqa	9 272,5	1,2	1,6
moliya va sug‘urta faoliyati	5 367,4	1,0	0,9
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	6 052,7	1,4	1,0
ta’lim	12 690,0	1,8	2,2
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	7 661,0	1,7	1,3
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	4 501,9	0,3	0,8
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	87 090,9	15,5	14,9
boshqa faoliyat turlari	42 667,0	4,1	7,3

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)
Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (choraklik)


III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 33,9 mlrd AQSH dollarini yoki 408 trln so‘mni tashkil etdi. Ushbu mablag‘lar yangi asosiy fondlarni yaratishga yo‘naltirildi.

4-jadval. Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so‘m

Hududlar	Xorijiy investitsiyalar	O‘z.Res. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar
O‘zbekiston Respublikasi[2]	**270 600,1**	**36 275,1**	**101 128,7**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7 429,9	1 696,8	3 805,1
Andijon viloyati	15 161,5	399,6	7 320,2
Buxoro viloyati	17 403,2	820,9	5 815,3
Jizzax viloyati	9 019,9	440,4	4 852,7
Qashqadaryo viloyati	5 621,5	2 494,5	8 916,7
Navoiy viloyati	22 698,9	1 764,5	6 656,6
Namangan viloyati	31 712,6	1 179,3	11 844,5
Samarqand viloyati	28 666,0	1 802,5	6 496,1
Surxondaryo viloyati	10 414,9	2 038,4	13 451,9
Sirdaryo viloyati	11 617,1	495,0	3 118,7
Toshkent viloyati	30 541,2	1 159,3	7 682,3
Farg‘ona viloyati	29 756,6	238,6	2 123,5
Xorazm viloyati	2 700,7	1 279,3	11 659,2
Toshkent shahri	47 856,1	6 022,3	7 385,8

O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyat bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi (yillik)
Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi (choraklik)

[2] *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda*

IV. O‘zbekistonda ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida jami 12,6 mln kv. metr yakka tartibdagi uy-joy foydalanishga topshirildi, bu 2025-yilning mos davriga nisbatan 13,1 foizga ko‘p.

Mazkur davrda respublika bo‘yicha jami 1 104,6 km suv quvurlari tarmog‘i ishga tushirildi, shundan 1 062,6 km yoki umumiy hajmning 96,2 foizi qishloq joylariga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, jami 11,4 km gaz quvurlari tarmog‘i foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ularning barchasi Farg‘ona viloyatida ishga tushirilgan.

5-jadval. Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Hududlar	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda, ming kv.m	Suv tarmog‘i, km	Gaz tarmog‘i, km
O‘zbekiston Respublikasi	**12 598,0**	**8 453,9**	**1 104,6**	**11,4**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	650,6	299,4	198,8	-
Andijon viloyati	1 260,6	860,6	25,9	-
Buxoro viloyati	1 249,7	851,4	-	-
Jizzax viloyati	645,4	302,0	167,2	-
Qashqadaryo viloyati	740,9	377,8	45,6	-
Navoiy viloyati	603,8	559,0	-	-
Namangan viloyati	1 244,7	789,4	-	-
Samarqand viloyati	285,7	272,4	575,1	-
Surxondaryo viloyati	1 083,7	1 074,9	-	-
Sirdaryo viloyati	94,2	57,7	-	-
Toshkent viloyati	1 503,5	1 188,3	-	-
Farg‘ona viloyati	1 213,1	734,9	92,0	11,4
Xorazm viloyati	1 208,3	1 086,1	-	-
Toshkent shahri	813,8	-	-	-

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni (yillik)
Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi (jami, yillik)
Ishga tushirilgan gaz tarmoqlari uzunligi (jami, yillik)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

Asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibiga quyidagilar kiradi: barcha turdagi qurilish ishlari xarajatlari; uskunalarni montaj qilish xarajatlari; mashinalar, (montaj qilinadigan va montaj qilinmaydigan) uskunalar, transport vositalarini, shuningdek, asbob-anjomlar va xo‘jalik inventarlarini xarid qilish xarajatlari; boshqa kapital ishlar va xarajatlar. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ilgari boshqa korxona va tashkilotlarning asosiy fondlari tarkibida bo‘lgan uskunalar, binolar, inshootlarni (yoki ularning qismlarini) xarid qilish xarajatlarini hisobga olmagan holda keltiriladi.

Chet el investitsiyalari – asosan keyinchalik daromad olish maqsadida xorijiy kapitalning O‘zbekiston hududidagi korxona va tashkilotlarga sarmoya sifatida kiritilishi.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import qilingan asosiy vositalarga yo‘naltirilgan sarmoyalarni o‘z ichiga oladi. Bularga obyektlarning dastlabki qiymatini oshiradigan yangi qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya xarajatlari; mashinalar, uskunalar va transport vositalarini xarid qilish; yerlarni obodonlashtirish; geologiya-qidiruv ishlari; asosiy podani shakllantirish; ko‘p yillik daraxtzorlar barpo etish va boshqalar kiradi.

Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich texnik va gumanitar yordam, “MEN” shartnomasi, ta’sischilarning yangi asosiy vositalar shaklidagi badallari, intellektual mulk obyektlari va intellektual faoliyat mahsulotlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar kabi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan sarmoyalarni ham qamrab oladi.

Metama’lumotlar uchun havola:

https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1865/Asosiy-kapitalga-investitsiyalar.pdf

https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1872/Iqtisodiy-faoliyat-turlari-boyicha-asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar.pdf

https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1867/Asosiy-kapitalga-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar.pdf

Izoh: 2025-yil va undan oldingi yillarga oid ko‘rsatkichlar qayta hisoblanganligi sababli avval e’lon qilingan ma’lumotlardan farq qilishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas’ul:	**Ijrochi:**	**Manzil:**
Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi	D. Xidiraliyeva 71 203-80-00 (1163)	